

SHEKISPIRNING QIROL LIR TRAGEDIYASIDA INSONIY ONG VA FOJEAVIY TANLOVLAR TAHLILI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti:
Ingiliztili ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Komilov Shohin Sheraliyevich

Tel: +998 88 551 52 15

UDK: 821.111(091)-21

<https://orcid.org/>Raqamlardi qo'yish kerak

Annotatsiya: Mazkur maqolada William Shakespearenig King Lir tragediyasi insoniy ong, axloqiy tanlov va hokimiyat muammosi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarning dramatik tuzulishi, obrazlari tizimi hamda ramziy qatlamlari ilmiy-nazariy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Xususan, Qirol Lir obrazining ruhiy evolyutsiyasi, ma'naviy ko'rlik fenomeni va kechikkan anglash jarayoni tragediyaning markaziy g'oyaviy omillar sifatida talqin etiladi. Maqolada Kordeliya, Goneril va Regan obrazlari o'rtasidagi axloqiy qarama-qarshilik inson tabiatining murakkab psixologik qirralarini ochib beruvchi vosita sifatida yoritiladi. Asar markazida — qarigan Qirol Lir turadi. U uch qizi orasida qirolligini taqsimlashga qaror qiladi va qaysi qizi ko'proq sevishini so'rab, ularning so'zlariga qarab meros ulushini belgilaydi. Katta qizlar Goneril va Regan yolg'on maqtovlar bilan otasining e'tiborini qozonishsa, eng kenjasi Kordeliya — samimiy va sodda javobi uchun merosdan mahrum etiladi. Keyinchalik Lir qizlarining asl yuzini ko'rib, xorlik va iztirobli kunlarni boshdan kechiradi. O'zining xatosini anglab yetgan qirol ruhiy iztiroblarga tushib, telbalik darajasigacha yetadi. Shuningdek, hokimiyat va insoniylik o'rtasidagi ziddiyatning falsafiy hamda antropologik mohiyati tahlil qilinadi. Asar achchiq va fojiali yakun bilan tugaydi. Tadqiqot filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabaning nazariy bilimlari hamda badiiy tafakkuriga tayangan holda yozilgan bo'lib, unda asarning estetik, tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Qirol Lir, tragediya, dramatik konflikt, oilaviy ziddiyatlar, xiyonat, soxta sevgi, yovuzlik, siyosat va psixologik tahlil, ma'naviy ko'rlik, hokimiyat, axloqiy ideallik, halollik va sadoqat.

Аннотация: В данной статье трагедия King Lear, созданная William Shakespeare, анализируется с точки зрения человеческого сознания, нравственного выбора и проблемы власти. В исследовании драматическая структура произведения, система образов и символические слои рассматриваются на основе научно-теоретического подхода. В частности, духовная эволюция образа короля Лира, феномен нравственной слепоты и

процесс запоздалого прозрения интерпретируются как центральные идейные факторы трагедии.

В статье нравственное противостояние между образами Корделии, Гонерильи и Реганы освещается как средство раскрытия сложных психологических граней человеческой природы. В центре произведения находится стареющий король Лир, который решает разделить своё королевство между тремя дочерьми и определить долю наследства в зависимости от того, какая из них сильнее выразит свою любовь к отцу. Старшие дочери — Гонерилья и Регана — завоёвывают расположение отца лестными и неискренними словами, тогда как младшая дочь Корделия лишается наследства из-за своего искреннего и сдержанного ответа.

Позднее Лир осознаёт истинную сущность своих дочерей и переживает унижение и тяжёлые страдания. Осознав собственную ошибку, король погружается в глубокие душевные переживания и доходит до состояния безумия. В статье также анализируется философская и антропологическая сущность противоречия между властью и человечностью. Произведение завершается горькой и трагической развязкой. Исследование написано на основе теоретических знаний и художественного мышления студента-филолога и раскрывает эстетическое, воспитательное и духовное значение произведения.

Ключевые слова: Король Лир, трагедия, драматический конфликт, семейные противоречия, предательство, ложная любовь, зло, политика и психологический анализ, нравственная слепота, власть, нравственный идеал, честность и верность.

Abstract: This article analyzes the tragedy King Lear by William Shakespeare from the perspective of human consciousness, moral choice, and the problem of power. The study examines the dramatic structure of the work, its system of characters, and its symbolic layers based on a scientific and theoretical approach. In particular, the spiritual evolution of King Lear, the phenomenon of moral blindness, and the process of delayed realization are interpreted as the central ideological elements of the tragedy.

The article highlights the moral conflict between the characters of Cordelia, Goneril, and Regan as a means of revealing the complex psychological aspects of human nature. At the center of the work stands the aging King Lear, who decides to divide his kingdom among his three daughters and determine their shares according to how strongly each declares her love for him. The elder daughters, Goneril and Regan, gain their father's favor with flattering and insincere words, while the youngest daughter, Cordelia, is deprived of her inheritance because of her sincere and restrained response.

Later, Lear realizes the true nature of his daughters and experiences humiliation and deep suffering. Recognizing his mistake, the king falls into profound psychological anguish and descends into madness. The article also analyzes the philosophical and anthropological essence of the conflict between power and humanity. The work ends with a bitter and tragic conclusion. The research is written based on the theoretical knowledge and artistic thinking of a philology student and reveals the aesthetic, educational, and spiritual significance of the work.

Keywords: King Lear, tragedy, dramatic conflict, family conflicts, betrayal, false love, evil, politics and psychological analysis, moral blindness, power, moral ideals, honesty and loyalty.

KIRISH

William Shakespearenin King Lir tragediyasi taxminan 1605-1660-yillarda yozilgan deb ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. Asar ilk bor 1608-yilda Kvarto (Quarto) nashrida chop etilgan, keyinchalik esa 1623-yilda mashhur Birinchi Folio (First Folio) to'plamiga kiritilgan. "Qirol Lir" qadimgi Britaniya afsonalariga borib taqaladi. Asar syujeti tarixiy rivoyatlarga asoslangan bo'lib, muallif uni badiiy qayta ishlab, chuqur falsafiy mazmun bilan boyitgan. 1603-yilda qirolicha Yelizaveta I vafotidan so'ng taxtga kelgan davrida hokimiyat, meros va davlat boshqaruvi masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan edi. Qirol Lir asarida ham aynan merosni bo'lish, hokimiyatni topshirish va siyosiy barqarorlik muammolari dramatik shaklda aks ettiriladi. Shuningdek tadqiqotchilar asarda 1605-yilgi siyosiy voqealari, xususan, Gunpowder Plot fitnasi ta'siri ham bilvosita sezilishini ta'kidlaydilar. Shu bois tragediya nafaqat oilaviy fojea, balki davrning siyosiy-falsafiy kayfiyatini ifodalovchi asar sifatida ham qimmatlidir. Demak, "Qirol Lir"dagi fojining asosiy manbai undagi obrazlardir. Ehtimol, Shekspir hayotning boshqa elementlaridan ko'ra ko'proq insonning xatti-harakati bilan shug'ullangan. Uning asosiy maqsadi insoniyatning qorong'u tomonlarini yoritish va inson tabiatining yuragiga kirib borish edi.

Asosiy Qism

"Qirol Lir" tragediyasida dramatik konflikt oilaviy munosabatlar doirasida boshlanadi, biroq asta-sekin umuminsonga xos fojiviy manzaraga aylanadi. Lir qirollikni uch qiziga bo'lib berishdan oldin ulardan o'ziga bo'lgan muhabbatini oshkora ifodalashni talab qiladi. Bu talab insoniy muhabbatni siyosiy mezon bilan o'lchashga urinish edi. Doneril va Regan otasiga haddan tashqari maqtovlar yog'diradi. Kordeliya esa samimiylikni saqlab qoladi va ortiqcha so'zlardan tiyiladi. Shu nuqtada Lirning ma'naviy ko'rliki namoyon bo'ladi va u tashqi nutq bilan ichki sadoqatni ajrata olmaydi. Asarda ko'rlik ramziy-semantik xarakter kasb etadi. Gloster obrazidagi jismoniy ko'rlik Lirning ma'naviy ko'rligiga parallellik hosil qiladi. Demak,

tragediyada tashqi va ichki ko'rish qobiliyati o'rtasida chuqur falsafiy bog'liqlik mavjud.

Asarda hokimiyat fenomenologiyasi alohida o'rin tutadi. Hokimiyat Lirni o'z mohiyatidan uzoqlashtiradi, uni yolg'on so'zlarga ishonadigan darajaga olib keladi. Shoir shuni ko'rsatadiki, hokimiyat insonni yuksaltirishi ham, tubanlashtirishi ham mumkin. Lirning ruhiy inqirozi shaxsning ijtimoiy maqomdan ajralgan paytdagi real qiyofasini ochadi. Bu jihat asarning antropologik mazmunini kuchaytiradi: Inson avvalo insondir, keyin esa hukmdor.

Qirol Lir obrazi dinamik xarakterga ega. Asar boshida u absolyut hokimiyat egasi, g'ururli va avtoritar shaxs sifatida gavdalanadi. U o'z qarorini mutlaq haqiqat deb biladi. Biroq voqealar rivojida uning ichki transformatsiyasi yuz beradi. Bo'ron sahnasi tragediyaning kulminatsion nuqtasidir. Tabiatning dahshatli manzarasi Lirning ichki iztiroblari bilan uyg'unlashadi. Shu jarayonda u oddiy insonning dardi va muhtojligini anglay boshlaydi. Hokimiyatdan mahrum bo'lgan shaxs o'zining asl mohiyatini kashf etadi. Lirning fojiasi shundaki, u haqiqatni juda kech anglaydi. Kechikkan anglash tragediyaning asosiy falsafiy qatlamini tashkil etadi.

Kordeliya obrazi tragediyada axloqiy ideal sifatida talqin etiladi. U muhabbatni balandparvoz iboralar bilan emas, balki ichki e'tiqod bilan namoyon etadi. Uning pozitsiyasi insoniy qadr-qimmatni saqlashga asoslangan. Shakespeare bu obraz orqali etik qadriyatlarni ulug'laydi. Kordeliya haqiqat va sadoqat ramzidir. Uning o'limi esa tragediyaning katarsis bosqichini yuzaga keltiradi — tomoshabin qalbida achinish va ruhiy poklanish hissi uyg'unadi. Asar boshida Lirning sevgi sinovida ishtirok etishdan bosh tortib, Kordeliya o'zini yaxshi fazilatlar egasi sifatida ko'rsatadi va uning Lirga bo'lgan sevgisining haqqoniyligi qirolning uni haydab chiqarishdagi xatosi darajasini aniq ko'rsatadi. Kordeliyaning Lir bilan uchrashishi qirollikdagi tartibning yaqqol tiklanganini, nafrat va adovat ustidan sevgi va kechirimlilikning g'alabasini anglatadi. Oilaviy baxtning bu qisqagina lahzasi "Qirol Lir"ning halokatli yakunini yanada fojiali qiladi, chunki mehribonlik va yaxshilik timsoli Kordeliya bu adolatsiz dunyoning shavqatsizligi qurboniga aylanadi.

Goneril, Lirning to'ng'ich qizi, shafqatsiz, ochko'z va hokimiyatparast. Otasining qirolligini olgach, uni tezda cheklashga va butunlay yo'q qilishga harakat qiladi. U erini (Albani gertsogi) mensimaydi, Edmund bilan yashirin aloqaga kirishadi. Goneril – yovuzlikning yaqqol timsoli sifatida gavdalanadi (sovuqqon, xiyonatkor va shafqatsiz). Oxirida Reganga hasad qilib, uni zaharlaydi, keyin o'zini o'ldiradi.

Regan, Lirning o'rtancha qizi, Gonerilga juda o'xshash – shafqatsiz va ikkiyuzlamachi. U ham otasini aldab, merosni olgach, uni sarson qiladi. Regan va Gonerilning farqi shundaki, Regan biroz hissiyroq va ehtirosga moyil (Edmundga oshiq bo'ladi). U ham oxir-oqibat zaharlanib o'ladi.

Edmund (Gloucesterning nikohdan tashqari tug'ilgan o'g'li), pyesadagi eng yorqin yovuz qahramonlardan biri. Noqonuniy tug'ilganligi uchun jamiyat tomonidan kamsitilgan, shuning uchun hokimiyat va boylikka intiladi. U otasini va akasini aldab, ikkalasini ham halokatga olib keladi. Edmund – intellektual yovuz, manipulyator, xarizmatik va falsafiy fikrlovchi obraz. U oxirida o'z qilmishlaridan pushaymon bo'ladi va Edgar bilan duelda halok bo'ladi.

Edgar (Gloucesterning qonuniy o'g'li), Edmundning akasi, sodiq, halol va jasur. Otasi tomonidan noto'g'ri ayblanganidan keyin o'zini jinni sifatida yashirib yuradi. Keyinchalik otasini qutqaradi va Edmundni mag'lub etadi. Edgar – pyesadagi yaxshilik va adolat ramzi, ammo u ham qiyinchiliklarda o'sadi va yetuklashadi.

Gloucester grafi, Lirga sodiq zodagon, Edgar va Edmundning otasi. U ham Lir kabi aldangan – noqonuniy o'g'li Edmund tomonidan xiyonat qilinadi. Dushmanlar tomonidan ko'zlari o'yib olinadi (pyesadagi eng shafqatsiz sahnalardan biri). Keyinchalik o'g'li Edgar tomonidan qutqariladi va o'z xatolarini anglab o'ladi. Uning hikoyasi Lirning hikoyasiga parallel.

“Qirol Lir”- William Shekspir tomonidan yaratilgan eng chuqur falsafiy mazmunga ega tragediyalardan biridir. Ushbu asar nafaqat bir qirolning fojeali taqdiri haqida hikoya qiladi, balki inson hayoti, axloq, mehr-muhabbat va haqiqatni anglash kabi muhim falsafiy masalalarni ham yoritadi. Asarni o'qigan o'quvchi undagi voqealar orqali hayot haqidagi ko'plab saboqlarni anglab yetadi. Asar qahramonlari orqali muallif adolat, hokimiyat va insoniylik oqibati to'g'risida chuqur falsafiy mushohadalarni ilgari suradi

Avvalo, asar o'quvchiga inson hayotida samimiylik va rostgo'ylikning qanchalik muhim ekanligini anglatadi. Qirol Lir qizlari orasida kim uni ko'proq sevishini aniqlash uchun ularning so'zlariga qarab hukm chiqaradi. Natijada u yolg'on maqtov aytgan qizlariga ishonadi, rostgo'y qizi Kordeliyani esa rad etadi. Bu voqea orqali o'quvchi inson faqat chiroyli so'zlarga aldanmasligi, balki haqiqatni chuqurroq anglashga harakat qilishi kerakligini tushunadi. Asar yana ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligini ham ko'rsatadi. Lir o'z qizlariga katta ishonch bildiradi, lekin ularning ayrimlari hokimiyat va boylikni qo'lga kiritgach, otasiga nisbatan shafqatsiz bo'lib qoladi. Bu holat o'quvchiga shuni anglatadiki, insoniy munosabatlar faqat manfaatga asoslanmasligi kerak. Haqiqiy mehr va hurmat insonning ichki tarbiyasi va axloqiy qadriyatlariga bog'liq.

Shuningdek, asarda insonning hayot sinovlari orqali o'zini anglab yetishi g'oyasi ham muhim o'rin tutadi. Lir boshida qudratli hukmdor bo'lsa-da, keyinchalik hokimiyatini yo'qotib, yolg'izlik va azoblarni boshdan kechiradi. Aynan shu qiyinchiliklar orqali u o'z xatolarini tushunadi va insoniylikning haqiqiy mohiyatini anglay boshlaydi. Bu esa o'quvchiga hayotdagi sinovlar ba'zan insonni yanada dono va sabrli qilishini ko'rsatadi. Asarning yana bir muhim falsafiy jihati — insonning ichki

fazilatlarini tashqi boylik yoki mansabdand ko'ra muhimroq ekanligidir. Qirol bo'lgan paytida Lir ko'plab odamlarning hurmatiga ega edi, biroq hokimiyatdan ayrilgach, ko'pchilik undan yuz o'giradi. Bu orqali asar o'quvchini insonni uning lavozimi yoki boyligiga qarab emas, balki insoniy fazilatlariga qarab baholash kerakligi haqida o'ylashga undaydi.

XULOSA

Bu asar o'quvchini hayotida, adolat, insoniylik va mehr-muhabbat haqidagi fikrlarini tubdan o'zgartiradi va chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Asardagi voqealar orqali inson o'z xatolaridan saboq olish, haqiqatni anglash va atrofdagi insonlarni qadrlash qanchalik muhim ekanligini tushunadi. Shu sababli Shekspirning bu tragediyasi nafaqat badiiy asar, balki inson hayoti va axloqiy qadriyatlar haqida muhim falsafiy saboqlar beruvchi asar sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talaba sifatida ushbu asarni o'rganish nafaqat til, balki inson ruhiyatini anglash uchun ham muhimdir. Shakespeare inson qalbining eng nozik qatlamlarini tahlil qilish orqali adabiyotning tarbiyaviy va estetik ahamiyatini namoyon etadi. Tragediya shuni anglatadiki, haqiqiy muhabbat baland so'zlarda emas, balki sadoqat va fidoyilikda namoyon bo'ladi. Inson o'z g'ururini yenga olmasa, fojiga yuz tutishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. William Shakespeare. King Lear. London: Arden Shakespeare nashri.
2. Bradley, A. C. Shakespearean Tragedy. London: Macmillan.
3. Bloom, Harold. Shakespeare: The Invention of the Human. New York: Riverhead Books.
4. Wells, Stanley. Shakespeare: A Life in Drama. Cambridge University Press.
5. William Shakespeare. King Lear. – London: Penguin Classics, 2005.
6. William Shakespeare. King Lear / Edited by R. A. Foakes. – London: Arden Shakespeare, 1997.
7. A. C. Bradley. Shakespearean Tragedy: Lectures on Hamlet, Othello, King Lear and Macbeth. – London: Macmillan, 1904.
8. Harold Bloom. Shakespeare: The Invention of the Human. – New York: Riverhead Books, 1998.
9. Jan Kott. Shakespeare Our Contemporary. – London: Routledge, 1964.
10. Stephen Greenblatt. Will in the World: How Shakespeare Became Shakespeare. – New York: W. W. Norton & Company, 2004.
11. Michael Hattaway. The Cambridge Companion to Shakespearean Tragedy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
12. Qayumov A. Jahon adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2004.